



“ILM, BOSHQARUV VA JAMOAT FAOLIYATI UYG‘UNLIGI: ALISHER AZIZXO‘JAYEVNING MEROSI”

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19103471>

Abduraimova Mehribonu Abduraim qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti yurisprudensiya yo‘nalishi I-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Azizxo‘jayevning hayoti, ilmiy-pedagogik faoliyati, davlat va jamoat ishlaridagi roli keng tahlil qilinadi. Maqolada uning yuridik fan rivojiga qo‘shgan hissasi, oliy ta‘lim tizimida yaratilgan ilmiy maktabi, shuningdek, O‘zbekiston mustaqillik davrida amalga oshirilgan siyosiy-huquqiy islohotlardagi amaliy faoliyati yoritiladi. Maqola Azizxo‘jayevning davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va yosh kadrlarni tayyorlashdagi strategik tashabbuslarini chuqur tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Azizxo‘jayev, yuridik fan, davlat boshqaruvi, huquqiy madaniyat, ilmiy-pedagogik faoliyat, mustaqillik davri, ijtimoiy faoliyat.

Аннотация: В данной статье широко анализируются жизнь, научно-педагогическая деятельность, а также роль Азизходжаева Алишера Аббосовича в государственной и общественной сфере. В статье освещается его вклад в развитие юридической науки, созданная им научная школа в системе высшего образования, а также практическая деятельность в ходе политико-правовых реформ, осуществленных в период независимости Узбекистана. Особое внимание уделяется глубокому анализу стратегических инициатив Азизходжаева по совершенствованию системы государственного управления, повышению правовой культуры и подготовке молодых кадров.

Ключевые слова: Алишер Азизходжаев, юридическая наука, государственное управление, правовая культура, научно-педагогическая.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the life, scientific and pedagogical activities, and the role of Azizxo‘jayev Alisher Abbosovich in state and public affairs. It highlights his contribution to the development of legal science, the scientific school he established within the higher education system, as well as his practical activities during the political and legal reforms implemented in the independence period of Uzbekistan. The article deeply examines Azizxo‘jayev’s strategic initiatives aimed at improving the system of public administration, enhancing legal culture, and training young specialists.



Keywords: *Alisher Azizxo'jayev, legal science, state administration, legal culture, scientific-pedagogical activity, independence period, social activity.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Eng avvalo, huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish ustuvor vazifa etib belgilandi. Bu jarayon esa puxta ilmiy asoslangan yondashuvni, chuqur nazariy bilim va amaliy tajribaga ega mutaxassislarni talab etardi. Ayniqsa, yuridik fan vakillari, davlat boshqaruvi sohasidagi olimlar va tajribali rahbarlarning o'rni beqiyos ahamiyat kasb etdi. Zero, yangi davlatchilik tizimini shakllantirish, qonunchilik bazasini yaratish va takomillashtirish, jamiyatda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatni yuksaltirish kabi masalalar bevosita ilmiy salohiyat va mas'uliyatli boshqaruvni taqozo etardi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan keng ko'lamli siyosiy-huquqiy islohotlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, sud-huquq sohasini liberallashtirish jarayonlari ko'plab yetuk olimlar va davlat arboblarning fidokorona mehnati bilan chambarchas bog'liqdir. Ana shunday yirik shaxslar qatorida Azizxo'jayev Alisher Abbosovich alohida o'rin egallaydi. U o'z faoliyati davomida nafaqat chuqur bilimli huquqshunos olim, balki mas'ul davlat lavozimlarida samarali faoliyat yuritgan, strategik

fikrlay oladigan rahbar sifatida ham e'tirof etilgan.

Alisher Azizxo'jayevning hayoti va faoliyati O'zbekistonning mustaqillik davri tarixi bilan uzviy bog'liqdir. U ilmfan, ta'lim va davlat boshqaruvi sohalarini o'zaro uyg'unlashtira olgan kam sonli ziyolilardan biri sifatida ajralib turadi. Uning ilmiy qarashlari davlat va huquq nazariyasini rivojlantirishga, boshqaruv tizimini takomillashtirishga, jamiyatda huquqiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, u amaliy faoliyati orqali davlat siyosatini hayotga tatbiq etish, ijtimoiy-madaniy sohalarni rivojlantirish va yosh kadrlarni tarbiyalash borasida salmoqli natijalarga erishgan.

Hayot yo'li. Azizxo'jayev Alisher Abbosovich 1953-yilda Farg'ona viloyatining Rishton tumanida ziyoli oilada tavallud topgan. Bolalik va o'smirlik yillaridanoq u ilmga qiziqishi, mustaqil fikrlashi hamda adolat va haqiqatga intilishi bilan tengqurlaridan ajralib turgan. Ayniqsa, jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga befarq bo'lmasligi, voqealarga tanqidiy va tahliliy yondasha olishi uning kelajakdagi kasbiy yo'nalishini belgilab berdi.

Oliy ta'limni u o'sha davrning nufuzli oliy o'quv yurtlaridan biri – Lenin nomidagi Toshkent davlat universitetining yuridik fakultetida oldi. Talabalik yillaridayoq u davlat va huquq



nazariyasi, konstitutsiyaviy rivojlanish masalalari, boshqaruv tizimining huquqiy asoslari kabi yo'nalishlarga alohida qiziqish bildirgan. U o'zini nafaqat bilim olish bilan cheklab qo'ymay, balki ilmiy to'garaklarda faol qatnashgan, dolzarb mavzularda ma'ruzalar qilgan va dastlabki ilmiy izlanishlarini boshlagan[2].

Universitetni muvaffaqiyatli tamomlagach, Azizxo'jayev ilmiy faoliyatini davom ettirish maqsadida aspiranturaga o'qishga kirdi. Bu davr uning ilmiy dunyoqarashi shakllanishida muhim bosqich bo'ldi. U davlat va huquq nazariyasi sohasida chuqur tadqiqotlar olib borib, jamiyat taraqqiyotida huquqning o'zni, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning nazariy asoslari, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish muammolarini o'rgandi.

Nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilganidan so'ng, ilmiy izlanishlarini yanada chuqurlashtirib, doktorlik dissertatsiyasini ham himoya qildi va yuridik fanlar doktori ilmiy darajasiga sazovor bo'ldi. Keyinchalik unga professor ilmiy unvoni berildi. Uning ilmiy ishlari nazariy jihatdan puxta asoslanganligi, amaliy ahamiyatga egaligi va zamonaviy boshqaruv talablari bilan uyg'unligi bilan ajralib turadi.

Shu tariqa, Azizxo'jayev Alisher Abbosovichning ta'lim va ilmiy shakllanish jarayoni uning keyingi faoliyati - pedagogik, ilmiy hamda davlat

boshqaruvi sohalaridagi yutuqlariga mustahkam zamin yaratdi[2].

Ilmiy-pedagogik faoliyati. Azizxo'jayev Alisher Abbosovichning ilmiy-pedagogik faoliyati O'zbekiston yuridik ta'lim tizimi rivojida muhim o'rin tutadi. U ko'p yillar davomida oliy ta'lim muassasalarida samarali mehnat qilib, huquqshunos kadrlar tayyorlash, ilmiy izlanishlarni yo'lga qo'yish hamda yuridik ta'lim mazmunini zamon talablari asosida takomillashtirishga katta hissa qo'shdi.

U o'z faoliyatini Toshkent davlat universiteti yuridik fakultetida boshlagan[2]. Bu yerda u davlat va huquq nazariyasi, boshqaruvning huquqiy asoslari, konstitutsiyaviy rivojlanish masalalari bo'yicha ma'ruzalar o'qidi. Uning darslari nazariy jihatdan puxta asoslanganligi, tahliliy fikr yuritishga undashi va amaliy misollar bilan boyitilgani bilan ajralib turardi. Azizxo'jayev talabalarga tayyor bilim berishdan ko'ra, ularni mustaqil fikrlashga, huquqiy hodisalarga tanqidiy yondashishga va muammolarga ilmiy asosda yechim topishga o'rgatishni maqsad qilgan.

Shuningdek, u Toshkent davlat yuridik institutida kafedra mudiri lavozimida faoliyat yuritib, yuridik ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlarida faol ishtirok etdi. Uning rahbarligida o'quv rejalari va dasturlari qayta ko'rib chiqildi, fanlar mazmuni zamonaviy demokratik huquqiy davlat qurish talablari asosida boyitildi. U ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik



texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini o'quv jarayoni bilan uzviy bog'lashga alohida e'tibor qaratdi[7].

Azizxo'jayev ilmiy maktab yaratgan yetuk olimlardan biri sifatida ham e'tirof etiladi. Uning ilmiy rahbarligida ko'plab yosh tadqiqotchilar nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilgan. U shogirdlarida ilmiy halollik, mas'uliyat va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga katta ahamiyat bergan.

Olimning ilmiy merosi serqirra bo'lib, u davlat va huquq nazariyasi, boshqaruv tizimini takomillashtirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy maqolalar, monografiyalar va o'quv qo'llanmalar muallifidir. Uning asarlari nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliyot uchun ham muhim tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Shu jihatdan, Azizxo'jayev Alisher Abbosovichning ilmiy-pedagogik faoliyati O'zbekiston yuridik fanining rivojida mustahkam iz qoldirgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati. Azizxo'jayev Alisher Abbosovich mustaqillik yillarida nafaqat yirik olim, balki mas'ul davlat arbobi sifatida ham samarali faoliyat yuritdi. Uning boshqaruv tajribasi, strategik fikrlashi va huquqiy bilimlari mamlakatda amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi.

1996–1998 hamda 2003-yillarda u O'zbekiston Respublikasi Bosh

vazirining o'rinbosari lavozimida ishladi[2]. Mazkur davr mamlakat hayotida tub o'zgarishlar bosqichi bo'lib, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, ijtimoiy sohalarni isloh qilish, ta'lim va madaniyatni modernizatsiya qilish masalalari dolzarb edi. Azizxo'jayev ushbu yo'nalishlarda davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarida faol ishtirok etdi. Ayniqsa, ijtimoiy sohalarda boshqaruv samaradorligini oshirish, normativ-huquqiy bazani mustahkamlash va tizimli yondashuvni joriy etish borasida uning tashabbuslari muhim natijalar berdi.

1999–2003-yillarda u Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi rektori lavozimida faoliyat yuritdi. Bu davrda akademiya davlat boshqaruvi tizimi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlaydigan muhim ilmiy-ta'lim markaziga aylandi. Uning rahbarligida o'quv jarayoniga zamonaviy menejment va boshqaruv texnologiyalari joriy etildi, davlat xizmatchilarining malakasini oshirish tizimi takomillashtirildi. Shuningdek, boshqaruv jarayonlariga ilmiy-tahliliy yondashuvni kuchaytirish, xalqaro tajribani o'rganish va amaliyotga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratildi[3].

2004–2007-yillarda Azizxo'jayev O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vaziri sifatida faoliyat olib bordi[1]. Ushbu lavozimda u milliy madaniy merosni asrash va rivojlantirish, san'at va ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, sport infratuzilmasini kengaytirish kabi muhim yo'nalishlarda keng ko'lamli ishlarni amalga oshirdi. Yoshlar o'rtasida



sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish, ommaviy sportni rivojlantirish va xalqaro sport aloqalarini mustahkamlash masalalari ham uning eʻtibor markazida boʻldi[2].

Shuningdek, u Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi hamda Prezident matbuot kotibi lavozimlarida faoliyat yuritib, davlat siyosatini jamoatchilikka yetkazish, ochiqlik va axborot almashinuvi tizimini rivojlantirishga hissa qoʻshdi. Axborot siyosatini takomillashtirish, davlat organlari faoliyatining shaffofligini taʼminlash kabi masalalarda uning tajribasi va huquqiy bilimlari muhim rol oʻynadi[4].

Jamoat ishlarida ham faol boʻlgan Azizxoʻjayev Oʻzbekiston kurash federatsiyasi prezidenti sifatida milliy sport turi - kurashni rivojlantirish, uni xalqaro miqyosda keng targʻib qilish, yosh sportchilarni qoʻllab-quvvatlash borasida samarali faoliyat olib bordi. Bu orqali u nafaqat sport sohasiga, balki milliy qadriyatlar va anʼanalarni asrab-avaylash ishiga ham munosib hissa qoʻshdi.

Umuman olganda, Azizxoʻjayev Alisher Abbosovichning davlat va jamoat faoliyati uning yuksak masʼuliyat, fidoyilik va professionallik tamoyillariga sodiqligini yaqqol namoyon etadi. U egallagan har bir lavozimda tizimli islohotlar olib borishga, boshqaruv samaradorligini oshirishga va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi tashabbuslarni ilgari surishga intilgan.

Azizxoʻjayevning ilmiy merosi huquqiy davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish masalalariga bagʻishlangan. U huquqiy madaniyatni yuksaltirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanini taʼkidlagan.

Olim sifatida u nafaqat nazariy, balki amaliy takliflari bilan ham ajralib turgan. Uning ilmiy qarashlari davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga, qonunchilikni rivojlantirishga va demokratik institutlarni mustahkamlashga qaratilgan edi.

Azizxoʻjayev 2012-yil 9-yanvar kuni 58 yoshida vafot etdi[5]. Biroq uning ilmiy va maʼnaviy merosi, yetishtirgan shogirdlari va amalga oshirgan ishlari bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq.

Azizxoʻjayev Alisher Abbosovich Oʻzbekiston yuridik fani va davlat boshqaruvi sohasida munosib oʻrin egallagan yetuk olim va davlat arbobi sifatida eʼtirof etiladi. U oʻzining fidokorona mehnati, ilmiy salohiyati va rahbarlik qobiliyati bilan mamlakat taraqqiyotiga salmoqli hissa qoʻshgan.

Uning hayoti va faoliyati yosh avlod uchun ibrat maktabi boʻlib xizmat qiladi. Huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish, davlat boshqaruvida professionalizmni taʼminlash borasidagi qarashlari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 4-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-3568-son Farmoni.
2. Azizxo'jayev A.// arboblarni.uz
3. Azizxo'jayev Alisher Abbosovich. // akademiklar.uz
4. Raximova M. Yurakdan xizmat qilgan siymo. Yuz.uz. 2025.05.08.
5. Qurbonov S.J. Faxriy professor Alisher Azizxo'jayevning ilm-fan rivoji, huquqiy davlat barpo etishdagi harakatlari, ibratli hayot yo'li va ilmiy-madaniy merosi. Выпуск журнала №-69, Часть-7, Мая – 2025. 259-266-b.
6. Toshkent davlat yuridik universiteti yangiliklari, 2025 yil manba.
7. Umbarov M.G'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi va ilmiy meros: Alisher Azizxo'jayev ta'siri. Ustozlar uchun, pedagoglar jurnali. Vol. 71. № 36 2025.